

TOSHKENT SHAXAR HUDUDIDAGI TARIXIY YODIGORLIKLARNING TAXLILI.

Raximova Dilafruz Mirzayevna

Andijon viloyati Bo'ston tumani 2-Umumta'lim maktabi

Tasviriy san'at chizmachilik fani o'qtuvchisi

Odilova SHaxribonu Abrorbek qizi

Tasviriy San'at chizmachilik fani mutaxasisi

Annotatsiya: *Mazkur maqola yurtimizdagi tarixiy yodigorliklar va ularning joylashgan hududi, yer maydoni, qurulish arxitekturasi haqida malumot berib maktab o'quvchilarida qadimgi binolarni qurulishi, nima maqsadda qurilganligi va eng asosiy hozirgacha qanday saqlanib qolganligi va yurtimizda tutgan o'rni kabi masalalar tahlil qilingan.*

Kalit so'zi: *Tarixiy yodigorliklar, qurulish arxitekturasi, yurtimizda tutgan o'rni, yer maydoni.*

- 1) Ko'kaldosh madirassasi.
- 2) SHayx Hovonda Tohur maqbarasi.
- 3) Yunusxon maqbarasi.
- 4) Tilla shayx jome masjidi.

Toshkent – nafaqat Markaziy Osiyo, balki jahondagi qadimiy shaharlardan biri bo'lib, dunyo sivilizatsiyasi rivojiga o'z munosib hissasini qo'shgan. Shahar muhim savdo karvonlari kesishgan, Buyuk ipak yo'li tarmog'ida joylashgan edi. Bu o'z navbatida shahar madaniy hayoti va rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Toshkent XIX asr boshlariga kelib Qo'qon xonligi hududiga kiritilib, xonlikning asosiy shaharlaridan biri maqomiga ega edi. XIX asrga kelib shaharda 12 ta darvoza mavjud bo'lib, shahar aholisi 80.000 ga yaqin kishini tashkil etgan. XIX asr o'rtalariga qadar shahar asosini Ko'kcha, Sebzor, Beshyog'och va Shayxontohur dahalari tashkil etgan. Har bir daha ko'plab mahallalardan tashkil topgan bo'lib, ularning soni XX asr boshlariga kelib 260 tani tashkil etgan. Shahar hududidagi masjidlar soni 1899 yili 180 ta, 1912 yili – 345 tani tashkil etgan bo'lsa, madrasalar 1912 yilga kelib – 16 tani tashkil etgan. Xristian cherkovlari 1910 yili – 15 tani, boshqa dinga mansub ibodatxonalar – 6 tani tashkil etgan.

Toshkentda mavjud bo'lgan Abulqosim, Ko'kaldosh, Baroqxon, Beklarbegi, Eshonguzar madrasalari ma'lum va mashhur bo'lgan ilm markazlari safidan joy olgan edilar. Toshkent shahri 1865 yili Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilganidan so'ng, Bo'zsuv kanali chap sohilida “yangi” shaharga asos solindi. Shaharning bu qismida mustamlaka ma'muriyati joylashgan hamda Rossiyadan ko'chib kelgan aholi yashaydigan joyga aylangan edi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shaharning “yangi” qismida qurilgan eng mashhur binolardan o'sha davrdagi Davlat banki, ayollar

gimnaziyasi (hozirgi Toshkent davlat yuridik instituti), Toshkent erkaklar gimnaziyasi, Kadetlar korpusi (hozirgi I Toshkent tibbiyot akademiyasi hududi), Knyaz Nikolay Konstantinovich saroyi (hozirgi Tashqi ishlar vazirligining qabulxonasi), Real bilim yurti, Kaplan dorixonasi, Toshkent shimoliy vokzali, Turkiston davlat palatasi va boshqalarni misol qilib keltirish mumkin. Imperiya ma'muriyati "yangi" qismga rivojlanish uchun mablag' ajratgan holda, aksariyat tub aholi yashaydigan "eski" qismga deyarli hech qanday mablag' ajratmadi. Shaharning "eski" qismi o'rta asrlar qiyofasida, pastqam, egri – bugri ko'cha va hovlilardan iborat holda saqlanib qoldi. Sovet hukmronligi davriga kelib, shahar qurilishi tizimiga g'oyaviy – mafkuraviy jihatdan yondashuv ustun bo'lib qoldi. Aksariyat shahardagi joy nomlari, mavze va ko'chalar mahalliy xalq tarixiga aloqasi bo'lmagan, kommunistik partiya va sovet davlati rahbarlari nomi bilan atala boshlandi. Mahalliy xalq an'analari, jug'rofiy va iqlim hususiyatlari e'tiborga olinmagan holda shaharda strukturaviy o'zgarishlar amalga oshirildi. Asosan mahalliy aholi istiqomat qiladigan "eski shahar" qismi imperiya davridan deyarli farq qilmaydigan holda o'zgarishsiz qolaverdi. Bu qismda yashovchi aholi ichimlik suvi, gaz, isitish tarmog'i, kanalizatsiya tizimidan bebahra holatda yashashni davom ettirdi.

XX asr 20-30-yillarida boshlangan dinga va diniy e'tiqodga qarshi kurash kampaniyasi shahardagi mavjud me'moriy obidalar taqdiriga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Masjid, madrasa, cherkov, ibodatxona, sinagog va boshqa diniy inshootlar yopilib, ular o'rniga omborxonalar, do'kon, yotoqxonalar, turli sexlar va hokazolar tashkil etildi. Bu holni alohida olingan sobiq dahalar misolida ko'rsak yanada yorqin tasavvur paydo bo'ladi. Beshyog'och dahasida hozirgi Respublika o'quvchilari saroyi atrofida bo'lgan Muhammadkarimhoji madrasasi ehtiyoj bo'lmagan holda 1924 yili buzib tashlangan. Hozirgi Milliy bog' darvozasi o'rnida bo'lgan Halimtoy madrasasi esa 30-yillar boshida buzib tashlanib, uning g'ishtlari turli maqsadlarga ishlatilib yuborilgan. Dahadagi mashhur Abulqosim madrasasi 1919 yili yopib qo'yilib, o'n yildan so'ng, 1929 yili Samaradan ko'chib keltirilgan, ocharchilikdan aziyat chekkan 70 oila bu yerga joylashtirilib, tarixiy yodgorlik yotoqxonaga aylantirilgan. 1974 yili esa binoga Toshkent o'yinchoq fabrikasining filiali joylashtirilib, bino qiyofasi butkul o'zgarib ketadi. 1946 yilgi Chotqol zilzilasi bir qator tarixiy inshootlarga salbiy ta'sir ko'rsatib, jumladan madrasa binosi ham yarim vayrona holatiga kelgan edi. Shunday taqdir XVI asr tarixiy yodgorligi bo'lgan Ko'kaldosh madrasasiga ham tegishli bo'lgan. Xoja Ahror jome masjidi, Xayrobod hon kompleksi, Cho'ponota masjidi va boshqalar ham xaroba holatga kelib qolgan bo'lib, ulardan turli maqsadlarda foydalanilgan.

Ko'kcha dahasida ko'zga ko'ringan yodgorliklardan biri Shayx Zayniddin bobo maqbarasi bo'lgan. XII asrda yashagan ushbu mashhur diniy arbob qabri ustida XIV asr oxirlarida Amir Temur muhtasham maqbara barpo etgan edi. Mazkur maqbara atrofida qabriston va masjid bo'lib, sho'rolar davrida maqbara butkul qarovsiz ahvolga tushib qolgan edi. Qabristonga tutash tarzda kichik masjid yonida kinoteatr ochilib, ko'ngilochar muassasa o'yin-kulgilari bilan qayg'u-alamga cho'kkan qabriston yonma-

yon turar edi. Dahadagi Hofiz Ko'hakiy masjidi yog'och ombori, To'xtaboy masjidi shisha omborxonasiga, Qo'shtut masjidi bog'chaga aylantirilgan. Shuningdek, XIX asr arxitektura yodgorligi bo'lgan Beklarbegi madrasasi 30-yillar boshida buzib tashlanib, uning o'rniga sovet davlati rahbarlaridan biri bo'lmish M. Kalinin haykali o'rnatilgan maydon tashkil etilgan.

Sebzor dahasidagi mashhur yodgorlik – bu Hazrati Imom (Xastimom) majmuasi hisoblanadi. Majmua sovet davrida mutlaqo qarovsiz qolib, undagi barcha masjidlar yopib qo'yilib, madrasa faoliyati to'xtatilgan edi. XVI asr yodgorligi bo'lmish Qaffoli Shoshiy maqbarasi nurab, ayanchli holatga tushib qolgan. Namozgoh masjidi keyinchalik shofyorlar o'qitiladigan maktabga, Baroqxon madrasasi esa Ateizm muzeyiga aylantirilgan. Keyinchalik majmua o'rtasida kinoteatr va maktab qurilib, bu shundoq ham ayachli ko'rinishiga ega bo'lgan majmua qiyofasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Hazrati Imom (Xastimom) maydoni faqat mustaqillik davriga kelib, tom ma'noda o'z obro' va mavqeyini qayta tikladi. Respublika Prezidenti I. Karimovning tashabbusi va rahbarligida Xastimom majmuasi 2007 yili qayta qurilib, o'zining yangi, muhtasham ko'rinishiga ega bo'ldi. Jumladan, maydonda yangi qurilgan Hazrati Imom jomemasjidi noyob arxitektura yodgorligi qatoridan joy oldi.

XX asr boshida Toshkent me'moriy yodgorliklari ichida Shayxontohur ziyoratgohi alohida o'rin tutgan. Shayxontohur shaharning eng gavjum va fayzli joylaridan biri bo'lib, bu yerda bir necha me'moriy obidalar, shifobaxsh buloqli Langar hovuzi, savdo rastalari o'rin olgan edi. Ziyoratgoh Hayit va Navro'z bayramlarida xalq sayli bo'ladigan yerga aylanar, keng xalq ommasi to'planadigan maskan hisoblanar edi. Keyinchalik ushbu ziyoratgoh 1924 yili yopib qo'yildi.

Toshkentning saqlanib qolgan Shayxontohur darvozasi XX asr 40-yillarida Navoiy ko'chasining kengaytirilishi munosabati bilan olib tashlangan edi. YUqorida qayd etilganidek, Shayxontohurning ko'cha bo'ylab kirish joyida XIX asr 40-yillarida qurilgan Eshonguzar madrasasi bo'lgan. Sovet davrida bu yerga kinostudiya joylashtirilib bir qator, jumladan, "Alisher Navoiy", "Tohir va Zuhra", "Nasriddin Buxoroda" nomli filmlar aynan shu studiyada yaratilgan. Madrasa Navoiy ko'chasining kengaytirilishi bahonasi bilan 60-yillarda buzib tashlandi. Majmuadagi Xotin masjid o'zining noyob o'ymakorligi va naqshlari bilan ajralib turardi, u keyinchalik bolalar kutubxonasiga aylantirilgan. 1967 yili Xotin masjidi va Zanjirlik masjidi, 1975 yili Ovrat masjidi turli bahonalar, chunonchi obodonlashtirish bahonasida buzib tashlangan. Undan avvalroq esa, arxitektura jihatidan katta ahamiyatga ega bo'lgan G'aribboy va Saidazimboy masjidleri 30-yillardagi dinga qarshi kurash kampaniyasi vaqtida buzib tashlangan edi. XX asr 80yillariga kelib Shayxontohur majmuasida atigi 3 ta me'moriy inshoot – Yunusxon, Shayx Hovandi Tohur hamda Qaldirg'ochbiy maqbaralari saqlanib qoldi, xolos.

Undan tashqari shaharda mavjud bo'lgan o'nlab mahalla masjidleri, ziyoratxona, honaqqoh va boshqalar turli sabab va bahonalar ostida buzib tashlangan edi. Toshkentdagi bir qator xristian va boshqa dinlar ibodatxonalari ham sovet diniy

siyosatining salbiy oqibatlarini boshidan kechirganlar. Masalan, 1888 yili qurilgan Spaso-Preobrajenskiy cherkovi 1930 yili buzib tashlanadi. Shahardagi katolik, lyuteran cherkovlari ham nochor ahvolda bo'lgan. Jumladan, XIX asrda qurilgan yevangel-lyuteran cherkovi 1937 yili yopilib, 1990 yilga qadar omborxonaga, geologiya boshqarmasi, itboqarlar jamiyati va boshqa muassasalar ixtiyorida bo'lgan. Bino bir necha marotaba yong'inga uchrab, 1966 yilgi zilziladan so'ng buzib tashlash ham rejaga kiritilgan. Ushbu xaroba cherkov faqat mustaqillik sharofati bilan qayta tiklanib, Respublika Prezidenti I.A. Karimovning 1993 yil 3 maydagi farmoni bilan yevangellyuteran cherkovi ixtiyoriga berildi. 1991 yildan boshlab mustaqil O'zbekiston poytaxti bo'lmish Toshkent, istiqloq sharofati bilan qadimiylik hamda zamonaviylik uyg'unlashgan, jahondagi ilg'or shaharsozlik an'analariga mos ravishda rivojlanayotgan shahar darajasiga erishdi.

Ko'kaldosh madrasasi —O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahrining tarixiy markazida, Chorsu maydonida joylashgan 2 qavatli madrasa inshooti.

Ko'kaldosh madrasasining tashkil etilishi Shayboniylar davrining ikki mashhur shaxsi — Buxoro xonligining nufuzli amaldori Qulbobo ko'kaldosh va Toshkent hokimi Darveshxonning nomlari bilan bog'liqdir. Ayrim, asosan, ilmiy-ommabop nashrlarda madrasa XVI asrda Qulbobo ko'kaldosh tomonidan bunyod etilgan deyilgan va boshqa, ayniqsa inqilobdan oldingi asarlarda u Darveshxon tashabbusi bilan qurilgani yozib qoldirilgan. Ko'kaldosh madrasasi Buxoro xonligi, Toshkent shahri o'rta asr shahristonining janubiy chekkasida qurilgan, hozirgi ko'cha o'rni handaq bo'lgan. Ko'kaldosh madrasasi XVIII asrning 1-choragida qarovsiz holga kelib qolgan va karvonsaroy sifatida foydalanilgan (1735). 1866- va 1886-yillardagi zilzilalar oqibatida vayron bo'lgan peshtoqi qayta tiklangan. 1946-yilgi zilziladan ham qattiq shikastlangan. Madrasa 1930—1960-yillarda butunlay qayta ta'mirlangan. Guldastalarining balandligi 2-qavat bilan deyarli tenglashtirilgan. Bir necha bor ta'mirlanishi natijasida madrasaning tashqi ko'rinishi o'zgarib ketgan. Madrasaning old tomonida an'anaviy usulda zinapoya ishlangan. Ko'kaldosh madrasasi hujralaridan birida Furqat 1889—1891-yillarda Toshkentda bo'lgan vaqtda bir muddat shu madrasada yashagan. Hamza 1910—1911-yillarda madrasa hujralaridan birida istiqomat qilgan. 1998-yildan binoning muhandislik ustuvorligini ta'minlash, tashqi va ichki tarzlarini asl holiga keltirish va atrofni obodonlashtirish ishlari olib borilgan. Toshkent shahrining 2200 yilligi munosabati bilan 2008-yilda Ko'kaldosh madrasasining kirish peshtoqi va old qismi ta'mirlangan.

Ko'kaldosh madrasasi 1991-yildan O'zbekiston musulmonlari idorasi tasarrufiga o'tkazilib, binoda shu idoraga qarashli o'rta maxsus islom bilim yurti o'z faoliyatini boshlagan.

Arxitekturasini. Binoni qurishda an'anaviy kompozitsiyaga rioya qilingan: chorsi hovlisi keng, hujralar va ochiq ayvonlar bilan o'ralgan. Hovlining II-simon yo'llari hujralarni (darsxonalarini) masjid bilan ulaydi. Hujralar soni 38 ta bo'lgan. Ushbu madrasa, Toshkentdagi eng chiroyli madrassalaridan biri deb xisoblanadi. Madrasa

dastlab 3 qavatli bo'lgan. Darvozadan kiraverishda chapda masjid, o'ngda darsxona joylashgan. Masjid va darsxonalarining usti o'zaro kesishgan ravoqlarga o'rnatilgan gumbazlardan iborat bo'lgan. Miyonsaroy 7 gumbazli. Me'morlar madrasani bezashda, asosan, binoning old tomoniga e'tibor berishgan. Sirkor parchin va girih naqshlar bilan bezatilgan hashamatli peshtoqning ikki yoniga ikki qavatli ravoq ishlangan. Ikkinchi qavatdagi hujralar faqat peshtoqning ikki yonidagina saqlangan. Bosh tarzining ikki burchagidagi guldastalar bilan yakunlanib, tepasiga qafasa o'rnatilgan. Ko'kaldosh madrasasining umumiy o'lchami 62,7x44,9 metr, hovlisi — 38x26,9 metr, peshtoqi bilan birga balandligi 19,73 metr. SHayx Xovandi Tohur (Tahur), Shayxontohur (XIII asr oxiri, hozirgi Bo'stonliq tumani Bog'iston qishlog'i — 1355, Toshkent) — shayx. Shayx Umar Bog'istoniyning o'g'li. Rivoyat etilishicha, Umar Bog'istoniyni befarzand bo'lib, kunlarning birida o'z zavjai muhtaramasi bilan Shayx Zayniddin maqbarasiga kelib Allohdan farzand ato etishni iltijo qilishadi. Ko'p o'tmay farzand ko'rishib, Shayx Umar farzandini Shayx Zayniddin mozorlariga olib boradilar. U yerda kabutarlar chaqaloqni ko'rib "at-tahur, at-tahur" deb sayray boshlashadi. Shayx Umar buni tug'ilgan o'g'liga bashorat deb biladi va unga ovandi Tohur (pok shayx) deb nom qo'yadi. Shayx Xovandi Tohur maqbarasi Shayx Xovandi at-Tahur ilohiyotga va tariqatga doir ilk saboqni otasidan olgan. Uning onalari tomonidan bobolari mavlono Tojiddin Darg'amiy "Rashahot aynil-hayot" ("Hayot buloqlaridan oqqan tomchilar") nomli asarda yozishicha, Shayx Xovandi at-Tahur ilohiyot va tasavvuf ilmining yirik namoyandalaridan biri, yetuk mutasavviflardan bo'lgan. U yassaviylik tariqati namoyandalaridan tariqat yo'lini o'rganadi hamda ilmi zohiriy va ilmi botiniy sir asrorlaridan voqif bo'ladi, karomatli shayxlar orasida yuksak maqomga erishadi. Xovandi at-Tahur ismi "nihoyatda pok xodim" ma'nosini anglatadi. Yakka xudolik haqidagi ta'limotni, tasavvufga oid iboralarni sharhlab bergan, shuningdek, she'riyat bilan shug'ullangan.

Yunusxon maqbarasi — Toshkentdagi me'moriy yodgorlik (15-asr); Islom universiteti hududida joylashgan. Toshkent hokimi Yunusxon vafoti (1487)dan so'ng Shayxontohur qabristonida Yunusxonning o'g'li Ahmadxon (Olachaxon) tomonidan qurdirilgan deb taxmin etiladi, qurilish keyingi davrlarda ham davom ettirilgan. Maqbara to'rtburchak tarhli (21,2x22 m), peshtoqgumbazli, katta xona (7x7m), ikki qo'sh qavatli hujralardan iborat. Binoning tashqi gumbazi, peshtoq ravog'i (19-asr da) buzilib ketgan, bezaklari saklanmagan, bino bir necha marta ta'mirlangan. Xonaqohning ichki qismiga ganchkori naqshlar, muqarnaslar ishlangan. 1970y.larning oxirida Yunusxon maqbarasi ning vayron bo'lgan qismlari tiklandi; 1999—2005 yillarda ta'mirlandi.

“Tilla Shayx” jome masjidi “Mo'yi Muborak” madrasasining g'arbida joylashgan. Uni Hazrati Imom dahasining Parchabof mahallasida tug'ilgan Tilla Shayx (savdogar) qurdirgan. Masjid o'rtacha kattalikda - eni 14 metr, bo'yi 17,3 metr. Ikki burchagida ikkita bir xil kichkina minorachalar, o'rtasida bularga qaraganda kattaroq minora joylashgan. An'anaviy me'morlikda yangilik tariqasida poydevor 0,85 metrga

ko'tarilgan. Kiraverishda to'rtburchak pishiq g'ishtdan qurilgan ayvoncha bor. Masjid ichi to'rt bo'lakka bo'lingani xonaqohni baland-roq ko'rsatadi. Taxminan 1930 yillardan keyin masjid yopilib, artelga (kosib-hunarmandlar birlashmasi) aylantirilgan. 1943 yili O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy nazoratini tashkil etishga ruxsat berilganida faoliyatini qaytadan boshlagan birinchi masjidlar qatori "Tilla Shayx" ham ochildi. 1972-1973 yillari masjid ta'mirlanib, kengaytirildi, qibla tomoniga tutashtirib yana bir xonaqoh qurildi va oldingi mehrobining ikki yonidagi devor masjidi binosi olinib, qo'shib yuborildi.

2007 yilgi qurilish-ta'mirlash ishlaridan keyin "Tilla Shayx" tashqi va ichki tomonidan yanada ko'rkam, ibodat uchun qulay bo'ldi. Gumbazlar ichi bir-biriga o'xshamagan rangin naqshlar bilan bezatildi, o'ziga yarashgan ganchkori bezaklar ila ziynatlandi. Shift va devorlariga o'rnatilgan qandil va chiroqlar xonaqohni yanada yorug' va fayzli qildi.

Adib Abduqahhor Ibrohimovning ma'lumotlariga ko'ra, Tilla Shayx buva Xoja Ubaydulloh Ahror avlodlaridan bo'lgan. Oktyabr to'ntarishidan keyin, sovetlar davrida u qatag'onga uchragan, Sharqiy Turkistonga qochib jon saqlagan. Uning avlodlari o'tgan asrning 50-yillari boshlarida Vatanga qaytishadi. Bu tabarruk xonadondan ko'pgina taniqli ziyolilar yetishib chiqqan.

O'zini Tilla Shayx boboning evarasi deb tanishtirgan Shayxov Botu Fotih o'g'lining ma'lumotlariga ko'ra, Tilla Shayx 1855 yili Toshkentda dunyoga keladi. Uning topgan daromadi, mol-dunoyosi chorva va savdo-sotiq orqasidan bo'lgan. Tilla Shayx o'z davrida mehr-muruvvati, saxovatpeshaligi bilan xalq ichida hurmat qozonadi. Ayoli Buviniso aya (1955 yili vafot etgan) bilan birga uch o'g'il, bir qiz (ismi Manzura) ko'rishgan. To'ng'ich farzandi G'ulom qori aka Xitoyda vafot etgan, ikkinchi va uchinchi o'g'illari Nig'mon hoji (1886-1973) va Nizom qori (1898-1976) 50-yillar boshlaridan Toshkentda istiqomat qilishgan. Taniqli adib, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, rahmatli Hojiakbar Shayxov uning avlodlaridan biri edi.

http://uztarix.narod.ru/tarixiy_obidalar.html

https://uz.wikipedia.org/wiki/Ko%CA%BBkaldosh_madrasasi_%28Toshkenthttpsuz.wikipedia.org/wiki/Shayxontohur_%28Shayx_Hovandi_Tohur%29